

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN O‘ZBEKISTON SSR IQTISODIY HAYOTIDA NARX-NAVO MASALASI

Mavluda Raxmanova

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898472>

Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan so‘ng, O‘zbekiston SSRda aholining daromad va iste‘molchilik quvvati nihoyatda past darajaga tushib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri 1942-yil boshlaridan mamlakatda asosiy iste‘mol va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish urush tufayli inqirozga uchraganligi edi. 1942-1947-yillarda narxlarning ikki xil: 1) ulushli (kartochkali) me‘yorlashtirilgan ta‘minot narxi, 2) kommersiya do‘konlaridan yashash uchun sotib olish mumkin bo‘lgan narxlar tizimi amal qilgan.

Samarasiz byudjet xarajatlari va soliq siyosati aholining ijtimoiy turmushi yomonlashishiga olib keldi. 1946 – 1947-yillarga kelib butun sovet davlatida narxlarning o‘rtacha qiymati 1937 yilga nisbatan 3,5 barabar, 1940 yilga nisbatan 3 baravar ko‘tarilib ketadi [1]. Natijada urushdan keyingi davrda yuzaga kelgan ocharchilik muammosi xalqning tinkasini yanada quritdi. Butun sovet davlatida bo‘lgani kabi O‘zbekiston SSR aholisi ijtimoiy va moddiy turmushi sanoatni urushdan keyin qayta izga solishdagi qiyinchiliklarni, qishloq xo‘jaligi sohasida ortda qolishlar va kartochka tizimi mavjud bo‘lgan murakkab bosqichlarni boshidan o‘tkazdi.

Iste‘mol hajmi yuqorilab borishi, bozorlarda narxlarning urushdan oldingi yillarga nisbatan 10-15 baravar oshib ketishiga olib keldi. Urushdan keyin sovet hukumati oldida aholidan kartochkalarni yig‘ishtirib olib, savdo-sotiqni qaytarish vazifasi turardi. Chuni butun SSSR aholisining uchdan bir qismini davlat non va oziq-ovqat bilan ta‘minlab kelayotgan edi. Endi ularni do‘konlardan sotib olishga qaytarish zaruratga aylandi. Kartochka tizimidan chiqish uchun yagona belgilangan narxlarni joriy qilish zarur deb hisoblangan. 1947-yilning 14-dekabrida SSSR Ministrlar Soveti va BKP (b) MKning “pul islohoti o‘tkazish hamda oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga nisbatan kartochka tizimini bekor qilish haqida”gi qarori [2] qabul qilinadi. Endilikda oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari kartochkasiz ochiq savdoga chiqariladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, mavjud kommersiya va ulushli narxlar o‘rniga davlat belgilaydigan yagona ulgurji va chakana narxlar joriy qilinib, non va bug‘doy narxlari avvalgi ulushli narxlardan 2,5 baravar pastroq bo‘lgan yagona davlat narxlariga o‘tkaziladi, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxi mavjud bo‘lgan ulushli narxlar asosida saqlab qolinadi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin sovet hukumati kartochkali tizimdagi va boshqa mahsulotlar narxini tartibga solish, konfiskatsion pul islohoti o‘tkazish, chakana narxlarni pasaytirish, ulgurji savdoni isloh qilishga harakat qiladi [3]. SSSRda 1947-yili yana pul islohoti o‘tkazilib, eski rubl yangisiga 10:1 nisbatda almashtiriladi. Bu davrda mahsulotlarni taqsimlashning kartochka tizimi tugatiladi. Shuningdek, oziq-ovqat va sanoat mollarini chakanalab sotish yuzasidan yagona davlat baholari belgilandi [4]. Pul islohoti o‘tkazilishidan oldin chakana narxlar 1940 yilga nisbatan 3 baravar ortiq bo‘lgan bo‘lsa, islohot yakunida 1948 yilga kelib bu ulush 2,5 baravarni tashkil qildi.

1947-yilda kam va o‘rtacha maosh oladigan ishchi va xizmatchilarning ish haqi oshirib borildi. Jumladan, paxta tozalash sanoatida o‘rtacha ish haqi 30,1 foizga, pillachilik sanoatida 34,2 foizga oshirildi. Ayniqsa qora metallurgiya, toshko‘mir, kimyo va sanoatning boshqa tarmoqlarida ishlovchilarning ish haqi urushdan oldingi yillarga solishtirganda 2 baravar oshirilgan edi. 1946 –

1948-yillarda O'zbekiston SSR aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida iste'mol mahsulotlari xarid quvvati oshishi jarayoni chakana va kooperativ savdosining kengayishi bilan birga kechdi. Go'sht 80,3 foizga, konserva mahsulotlarini sotish 59,3 foizga, jun gazlama sotish 83,3 foizga oshdi. 1954-yil Toshkent shahri ishchi va xizmatchilari tomonidan avvalgi yillarga nisbatan radiopriyomnik va mebellar sotib olish 44-47 foiz ko'p xarid qilindi [5]. Mahsulotlar savdo aylanmasi xalq iste'mol hajmi bilan sezilarli yuqorilab bordi. Shu tariqa, aholining ijtimoiy hayoti urushdan keyingi qiyinchiliklarga qaramasdan yaxshilanib bordi.

1952-yildan narxlarni tayinlash, ularni ro'yxatga olish, narxlarning to'g'ri yuritilishi uchun va hisob-kitob qilinishi uchun SSSR respublikalari va O'zbekiston SSRda ham Savdo vazirliklari tarkibida alohida narx bo'limlari tashkil qilinadi [6].

Davlat iste'mol narxlarini belgilashda hududlar geografik joylashuviga asoslangan. Agar mahsulot shu hududda ishlab chiqariladigan bo'lsa arzonroq, bu hududda yetishtirilmagan bo'lsa qimmatroq narx belgilangan. Bunda mahsulotni yetkazish va omborxonada saqlash harajatlari hisobga olingan. Misol uchun 1952-yil iyul oyi holatiga ko'ra, kartoshka yetishtirilgan 1-toifali hududlarda 1 kg kartoshka narxi 1,30 rubl, O'zbekistonda esa 1,70 rubl qilib baholangan. O'zbekiston piyoz, sabzi, pomidor va bodring yetishtiriladigan 1-toifali hududga kiritilgan. 1 kg 1-navli piyoz 2,50 rubl, pomidor 2,50 rubl, bodring 2 rublga baholangan bo'lsa, 3-toifali hududlarda 1-navli 1 kg piyoz 5 rubl, pomidor 10 rubl, bodring 5 rubldan sotilgan [7].

1948 – 1953-yillarda butun sovet davlatida narx-navo pasaytirilishi 6 marta amalga oshirildi. 1953-yilning 1-aprelida SSSR Ministrlar Soveti va KP (b) MKning “Oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga davlat chakana narxlarini pasaytirish” to'g'risidagi qarori oxirgi marta qabul qilingan. Unda non, un, go'sht mahsulotlar narxi 10-15 foiz, meva va sabzavotlar 50 foiz, boshqa sanoat mahsulotlari narxi 5-25 foiz miqdorda pasaytirilishi nazarda tutilgan [8]. Bu davrda amalga oshirilgan narx navoni pasaytirish tadbirlariga O'zbekiston SSR korxonalarida ishlovchilar ijobiy baho berib, narx-navoning tushurilish ularning oylik maoshlari barcha turmush xarajatlarni qoplashiga yordam berganligi keltirilgan [9]. Biroq shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, aholi iste'mol harajatlari o'sishi jarayoni narx-navoning pasaytirilishi bilan birga olib borilib, sovet hukumati inflatsiya oqimini pasaytirish va uni bir maromda ushlab turish yo'li bilan ishchi va aholining o'rta qatlami vakillariga inflatsiya ta'siri sezilmasligiga erishdi.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining narx-navo va maoshlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga uringanligi, xususiy tadbirkorlik va savdoning cheklanganligi, ishlab chiqarishning qo'llab-quvvatlanmaganligi, paxta yakka hokimligining o'rnatilishi va boshqa sabablar O'zbekiston SSR aholisining ijtimoiy hayotida o'z salbiy oqibatlarini namayon qildi. Tovar tanqisligi (defitsit), mahsulotlarni talon bo'yicha tarqatish, yuqori narx-navo, ishsizlik, jinoyatchilik, ichkilik va chekuvchilik illatlari sovet hokimiyati yuritgan siyosat keltirib chiqargan muammolar edi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Я.Миркин. “Было дело - и цены снижали...” Шесть сталинских ценовых послаблений глазами ученого-экономиста // Журнал “Родина”. №1. 2022. С. 28-33.
2. Газета “Ленинградская правда” (Ленинград). №292. 15 декабря 1947 г.
3. В.Н. Мамяченков. Политика цени карточная система в СССР: государство и общество в 1946 году (на материалах Свердловской области) // Вестник Челябинского государственного университета. 2009. Вып. 36. С. 115–119.

4. М. Хўжамов. 40-йилларнинг иккинчи ярми 50-йиллар бошларида Ўзбекистонда озиқ-овқат маҳсулотлари борасида олиб борилган нарх-наво сиёсати // Ўтмишга назар. Взгляд в прошлое. Look to the past. №SI-3. 2021. 723-бет.
5. И.М. Мўминов ва бошқалар. Совет Ўзбекистони ишчилар синфининг тарихи. Тошкент. 1974. 234-235-бетлар.
6. ЎзМА. Р-837-жамғарма, 38-рўйхат, 4495- йиғмажилд, 1-бет.
7. ЎзМА. Р-91-жамғарма, 10-рўйхат, 16(а)- йиғмажилд, 19-22-бетлар.
8. Газета “Правда востока” (Ташкент). 1 апреля 1953 г.
9. Газета “Правда востока”. 2 апреля 1953 г.